

BOJXONA TO'G'RISIDAGI QONUNCHILIKNI BUZISH, IQTISODIYOT SOHASIDAGI JINOYATLARDAN BIRI SIFATIDA

Boltayev Uktam Utkir o'g'li

E-mail: uktamboltayev1994@gmail.com; Phone: +998 93 766-99-35

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
“Tergov faoliyati” mutaxassisligi bo'yicha magistratura tinglovchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10995519>

Annotatsiya. Ushbu maqolada bojxona sohasidagi jinoyatlar tushunchasi, belgilari, tasnifi va o'ziga xos xususiyatlarining mazmuni va mohiyati, ushbu sohasidagi jinoyatlarni sodir etilish usullari, sabablari va bunga imkon berayotgan shart-sharoitlar, oldini olish choralari, shuningdek, xorij mamlakatlari tajribasini o'rgangan holda ushbu turdagi jinoyatlarni malakalashni yanada takomillashtirish, ular bo'yicha vujudga kelayotgan muammolar va ularning yechimlari tadqiq qilingan holda bojxona sohasi va milliy qonunchilikni takomillashtirish hamda ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlar bo'yicha jinoiy javobgarlikni liberallashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar bildirilgan.

Tayanch so'zlar: bojxona sohasidagi jinoyatlar, bojxona to'lovlari, berilgan imtiyozlar, bojxona rejimlari, aksiz marka, tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, javobgarlik.

VIOLATION OF CUSTOMS LEGISLATION AS ONE OF THE CRIMES IN THE FIELD OF ECONOMY

Abstract. The article describes the concept, signs, classification and characteristics of customs crimes, the methods, causes, conditions and prevention measures for crimes in this area, as well as the experience of foreign countries. Suggestions and recommendations were made regarding the further improvement of qualification the problems that arise in relation to them and their solutions, the improvement of the customs sphere and national legislation and the liberalization of criminal liability for crimes of low social risk.

Base words: customs crimes, customs payments, concessions, customs regimes, excise stamp, pre investigation, investigation, responsibility.

НАРУШЕНИЕ ТАМОЖЕННОГО ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА КАК ОДНО ИЗ ПРЕСТУПЛЕНИЙ В СФЕРЕ ЭКОНОМИКИ

Аннотация. В данной статье раскрыты понятие, признаки, классификация и характеристика преступлений в таможенной сфере, способы, причины и условия совершения преступлений в этой сфере, меры профилактики, а также опыт зарубежных стран. Дальнейшее повышение квалификации, возникающие по ним проблемы и пути их решения, совершенствование таможенной сферы и национального законодательства, либерализация уголовной ответственности за преступления повышенного социального риска.

Базовые слова: преступления в сфере таможенного дела, таможенные сборы, предоставленные льготы, таможенные режимы, марка беспошлинной торговли, доследственная проверка, расследование, ответственность.

Kirish.

O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning zamonaviy sharoitlari murakkab tashqi

siyosat va iqtisodiy vaziyat hamda ijtimoiy keskinlik bilan ajralib turadi, bu esa, o'z navbatida, o'zgarishlar zarurligini talab qiladi. Masalan, diversifikatsiya va import o'rnini bosishga o'tish maqsadida iqtisodiyotning strategik muhim sohalarni rivojlantirish zaruriyatini hisobga olib, ishbilarmon doiralarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashning tegishli mexanizmlari mavjud davlat xavfsizlik tizimini mustahkamlash, shuningdek, davlat va xususiy investitsiyalarni jalb qilish va himoya qilish uchun shart-sharoitlar yaratish zarur. Hozirgi kunda yurtimizda keng ko'lamdagi islohotlar olib borilishiga qaramasdan tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi, shu jumladan bojxona qonunchiligi buzilishi bilan bog'liq huquqbuzarliklar ko'lami va salmog'i ko'payib borishi kuzatilmoqda. Bojxona qonunchiligi buzilishi jinoyatlari huquqbuzarlarni noqonuniy yo'llar bilan mo'maygina daromad keltira olishi bilan qiziqтира olgan. Bundan tashqari ushbu sohadagi jinoyatlar eng moslashuvchan va ijtimoiy munosabatlarga tez kirishimlidir. Boshqa iqtisodiy jinoyatlar singari, ushbu sohadagi jinoyatlar mamlakatning iqtisodiy xavfsizligi asoslariga tajovuz qiladi.

Zamonaviy sharoitda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash juda katta ahamiyatga ega, chunki iqtisodiy globallashtirish xalqaro iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda va yagona iqtisodiy makonni shakllantirishda sifat jihatidan yangi bosqichni anglatadi. Jinoyat qonunchiligi tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq bojxona qonunchiligi buzilishlariga qarshi kurashning asosiy vositalaridan biridir. Ushbu sohadagi jinoyat qonunchilikni samarali ravishda takomillashtirish uchun, bojxona sohasidagi jinoyatlar tushunchasini va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash muhim hisoblanadi.

Amaldagi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining maxsus qismi bojxona sohasidagi jinoyatning alohida ob'ekti sifatida ajratib ko'rsatmaydi. Huquqiy normalarda va sud tergov amaliyotida ushbu masalani hal qilish bo'yicha yagona yondashuv yo'q. Mamlakatimizda olib borilgan tadqiqotlarda bojxona sohasidagi jinoyatlarning jinoiy-huquqiy va kriminologik jihatlari kompleks ravishda o'rganilmagan. Mazkur masalaning ayrim jihatlari M.X.Rustamboev, K.Abdurasulova, Sh.Abdukodirov, M.Sobirov, E.Xojiev, A.Abdurahmonova, A.Axlimirzaev, S.Shomirzaev, R.Kabulov, A.Otajonov, O.Mahkamov, F.Gafurov, B.Turdiyev va boshqalarning ilmiy va uslubiy ishlarida o'z aksini topgan. Lekin, MDH olimlari tomonidan olib borilgan ko'plab tadqiqot ishlari bojxona sohasidagi jinoyatlarga taalluqli muammolarni o'rganishga bag'ishlanganligini ko'rsatib o'tish mumkin. Bojxona sohasidagi jinoyatlar ijtimoiy munosabatlarga to'g'ridan-to'g'ri tajovuz qiladi va iqtisodiy manfaatlariga zarar yetkazadi. Bu jinoyatlar bojxona sohasidagi o'rnatilgan tartibni buzuvchi jinoiy harakatlardir. Bojxona sohasidagi jinoyatlar bo'yicha tadqiqot olib borgan aksariyat mualliflar ushbu tushuncha tajovuz obekti orqali shakllantirilishini ta'kidlaganlar. Yu.I.Suchkov bojxona sohasidagi jinoyatlar barcha mulkchilik shakldagi jinoyatlarga ta'sir qo'rsatishini aytadi.¹ Boshqa bir qator olimlar o'rganilayotgan sohadagi jinoyatlarni bir qancha xususiyatlar, jumladan, nafaqat ob'ekt, balki ushbu toifadagi ishlar bo'yicha surishtiruv olib boruvchi sub'ektlar orqali aniqlashni taklif etadilar. Masalan, G.A.Rusanov ko'rib chiqilayotgan harakatlarni bojxona organlari vakolati bilan bog'liq bo'lgan jinoyat sifatida talqin qiladi va "sof bojxona jinoyati" deb ataydi.² Ushbu mazmundagi

¹ Suchkov Yu.I. Преступления в сфере внешнеэкономической деятельности Россия Федерatsiyasi. Moskva, 2007. S. 115.

² Rusanov G.A. Преступления в сфере экономической деятельности: учебное пособие. Moskva, 2011. S. 76. 14.

ta'rif bir necha sabablarga ko'ra birmuncha cheklangandek ko'rinadi: birinchidan, ushbu sohadagi jinoyatlar bo'yicha tergovga qadar tekshiruv va surishtiruv bilan shug'ullanuvchi sub'ektlar doirasi torayib, ikkinchidan, jinoiy ta'sir doirasi sifatida faqat bojxona sohasi belgilangan. Bunday talqin, tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi barcha noqonuniy harakatlar ushbu tushunchaga mos kelmasligi mumkinligini ko'rsatadi. Bojxona sohasidagi jinoyatlar to'g'risida ayrim huquqshunoslarning ta'rifiga ko'ra, bojxona organlari davlatning tashqi iqtisodiy siyosatini amalga oshirganligi sababli bojxona organlarining faoliyatini jinoyatlar ob'ekti sifatida tan olish noto'g'ri bo'ladi, chunki bojxona sohasidagi munosabatlar iqtisodiy faoliyat sohasidagi ijtimoiy munosabatlarning tarkibiy qismi hisoblanadi³. Yuqoridagi ta'riflarning barchasi ma'lum darajada bojxona sohasidagi jinoyatlarning mohiyatini ochib beruvchi xususiyatlarni o'z ichiga olsada, birinchi navbatda tajovuz ob'ektini belgilash bilan bog'liq yondashuv, bizningcha, ushbu jinoiy harakatlarni boshqalardan ajratib ko'rsatish imkonini berganligi tufayli eng maqbulidir. Umuman olganda MDH olimlarining bojxona sohasidagi jinoyatlar tushunchasi bo'yicha uch xil yondashuvlarini ajratishimiz mumkin. 1.

Ushbu harakatlarni aynan bojxona faoliyatiga tajovuz qilish deb ataydi (Yu.I.Suchkov, I.V.Dmitrienko, A.V.Makarov, A.S.Jukova). Bojxona sohasidagi jinoyatlarni bojxona qonunbuzilishi deb hisoblaydi. (S.Yu.Ivanova, A.I.Tulenev, G.A.Rusanov, V.M.Malinovskaya, V.I.Kartavsev, A.V.Nesterov, A.D.Krasnov, D.A.Postnova). Bojxona sohasidagi jinoyatlarini tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi jinoyatlar turi sifatida ko'rib chiqishni taklif qiladi. (I.V.Dmitrienko, Yu.P.Garmaev). Biz ushbu yondashuvlarning 3-guruhini ma'qullaymiz va buni quyidagilar bilan asoslantirishga harakat qilamiz. Yuqorida aytib o'tganimizdek, jinoyatlar guruhini muayyan turga ajratishda ularning sodir etilishi natijasida qaysi munosabatlarga ko'proq zarar yetkazilishini aniqlash muhim ahamiyatga ega. I.V.Dmitrienko ta'kidlaganidek, bojxona organlari faoliyati jinoiy tajovuz ob'ektini tashkil qilmaydi, chunki ushbu harakatlar mazkur faoliyatni tashkil etishni buzish maqsadida sodir etilmaydi⁴. Ko'rib chiqilayotgan jinoyatlarni sodir etish natijasida bojxona organlari faoliyati zarar ko'rmaydi, lekin tajovuz ob'ekti hisoblangan tashqi iqtisodiy munosabatlar elementlaridan biri bo'lib qoladi. Shuningdek, muallifning bojxona organlari tashqi iqtisodiy siyosatni amalga oshirishning bir vositasi ekanligi sababli bojxona organlari faoliyatini ushbu jinoyatlarning ob'ekti sifatida tan olmasligi to'g'risidagi fikriga ham qo'shilamiz. Yu.P.Garmaev o'zining nuqtai nazarini iqtisodiy faoliyatni tartibga soluvchi keng tarmoq sohalari - bojxona, fuqarolik, valyuta, bank, ma'muriy qonunchilik, davlat xizmati to'g'risidagi qonun hujjatlari va boshqalarni qamrab oladi deb ta'rif beradi. Uning fikricha, iqtisodiy soha, bojxonadan ancha kengroq ekanligidan dalolat beradi. Bojxona sohasidagi jinoyatlar tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi jinoyatning turi deb hisoblaydi⁵. Yuqorida ko'rsatilganidek, ba'zi huquqshunoslarning fikriga ko'ra, iqtisodiy faoliyat sohasidagi jinoyatlar "bojxona sohasidagi jinoyatlar" hisoblanadi.

Biroq, jinoyat huquqi ta'limotida va amaldagi qonun hujjatlarida "bojxona sohasidagi jinoyatlar" tushunchasiga ta'rif berilmagan, bu esa iqtisodiy faoliyat sohasidagi jinoyatlar

³ Dmitrienko I.V. Foreign economic activity as the object of criminal law protection // Russian investigator. 2008. №8.

⁴ Dmitrienko I.V. Внешнеэкономическая деятельность как объект уголовноправовой охраны // Rossiyskiy sledovatel'. 2008. № 8. С. 13–15. 15.

tushunchasini anglashimizda noaniqliklarni yuzaga keltiradi. Ta'kidlash joizki, "Bojxona sohasidagi jinoyatlar" mazmun mohiyatiga ko'ra bojxona qonunchiligini buzishga qaratilgan ijtimoiy xavfli qilmishlar hisoblanadi. Bojxona qonunchiligi buzilishi tushunchasiga to'g'ri tavsif berish uchun dastlab aynan qaysi normativ-huquqiy hujjatlar bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlari hisoblanishini aniqlab olish zarur. Qonunchilikka ko'ra, O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlarni va transport vositalarini olib o'tish, bojxona to'lovlarini undirish, bojxona rasmiylashtiruvini, bojxona nazoratini amalga oshirish, shuningdek bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish hollarining oldini olish, ularni aniqlash va ularga chek qo'yish tartibini belgilash bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlari hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2022 yil 20 fevraldagi 2-sonli qaroriga ko'ra, *"...Tovarlar va transport vositalarini belgilangan tartibni buzgan holda bojxona chegarasidan har qanday tarzda o'tkazish qonunga xilof hisoblanadi va ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi"*.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida bojxona sohasidagi jinoyatlar alohida guruhga ajratilmagan. Bojxona qonunchiligi buzilishi uchun Jinoyat kodeksining 182-moddasida "Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish"⁵, 184-moddasida "Soliqlar yoki boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlash", 246-moddasida "Kontrabanda" jinoyatlaridan tashqari, dispozitsiyasida bojxona qonunchiligi buzilishi ham nazarda tutilgan JKning 130-moddasi ("Pornografik mahsulotni tayyorlash, olib kirish, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish"), 130¹-moddasi ("Zo'ravonlikni yoki shafqatsizlikni targ'ib qiluvchi mahsulotni tayyorlash, olib kirish, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish"), 244³ -moddasi ("Diniy mazmundagi materiallarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, olib kirish yoki tarqatish"), 244⁴ -moddasi ("Uchuvchisiz uchadigan apparatlarni qonunga xilof ravishda olib kirish, o'tkazish, olish, saqlash yoki ulardan foydalanish") va 250¹ ("Pirotexnika buyumlarining qonunga xilof muomalasi") moddalari bo'yicha ham javobgarlik belgilangan. Bojxona sohasidagi jinoyatlar haqida gap ketganda, ko'plab mualliflar bojxona chegarasini kesib o'tish orqali muayyan harakatlarning amalga oshirilishini ushbu jinoyatlarning asosiy xususiyatlardan biri sifatida ta'kidlashadi. Biroq shuni hisobga olish kerakki, bunday jinoiy harakatlar bojxona chegaralarida sodir etilishi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish tartibiga ham tajovuz qiladi va bu harakatlarni bojxona sohasidagi jinoyatlar ekanligidan dalolat beradi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan turli xil variantlar mavjudligiga qaramay, huquqiy normalar va amaldagi qonun hujjatlarga asoslangan bojxona sohasidagi jinoyatlarni belgilaydigan ta'rifga ehtiyoj sezilmoqda. Buning uchun ushbu harakatlar uchun jinoiy javobgarlikni belgilovchi quyidagi asosiy xususiyatlarini ko'rsatib o'tishimiz mumkin. Birinchidan, bu, albatta, ushbu harakatlar O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 14-moddasida ko'rsatilgan jinoyat deb topiladigan belgilarga ega bo'lishi kerak, ya'ni qilmishning ijtimoiy xavfliligi, g'ayriqonuniyligi, jinoiy jazoga sazovorligi jinoyatning zaruriy belgilaridir. Bu xususiyat har qanday jinoyatlar guruhi uchun birlamchi asos vazifasini bajaradi. Ikkinchidan, shuni aytish kerakki, bojxona

⁵ Garmaev Yu.P. Преступления в сфере внешнеэкономической деятельности и криминалистическая методика расследования // SPS «Konsultant Plyus.

sohasida jinoiy tajovuzlarning ob'ekti - bu ijtimoiy munosabatlarning muhofaza etiladigan alohida sohasidir.

Bunday jinoyatlar iqtisodiy jinoyatlarning bir turi bo'lib, albatta, ob'ektni aniqlash uchun iqtisodiy faoliyat sohasidagi jinoiy tajovuzlarning ob'ektini o'rganishdan boshlash kerak. Shu bois, iqtisodiy munosabatlarga tajovuz qiluvchi jinoyatlarning ob'ektini aniqlash orqali tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi jinoyatlarning ob'ektini aniqlash maqsadida biz "iqtisodiy jinoyatlar" tushunchasini chuqurroq o'rganib chiqib, asosiy xususiyatlariga to'xtalib o'tamiz. Uchinchidan, ushbu harakatlar uchun jinoiy javobgarlikni belgilovchi asosiy xususiyatlarini aniqlashda jinoyat qonunchiligi, avvalo, tajovuz ob'ektiga asoslangan holda alohida boblarga ajratilib tuzilganligini hisobga olsak, bojxona sohasidagi barcha jinoyatlar Jinoyat kodeksining «Iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlar» deb nomlangan 12-bobida joylashgan bo'lishi kerak. O'rganilayotgan jinoyatlar uchun javobgarlik normalarini boshqa boblarga joylashtirish me'yorlashning tizimli yondashuvi buzilishi sifatida talqin qilinadi, bu esa jinoyatlarga, xususan tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurash mexanizmi samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Biroq, O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligida bojxona qonunchiligini buzish jinoyatlari JKning turli boblariga joylashtirilganligini ko'rishimiz mumkin. Bizning fikrimizcha, yuqorida qayd etilgan bojxona sohasidagi ayrim jinoyatlardan (JK 182 va 184 moddalari) tashqari, bir qator boshqa jinoiy harakatlar (JK 130, 130¹, 244³, 244⁴, 246 va 250¹) bojxonaga oid munosabatlarga bilvosita tajovuz qilsada, ular bevosita tajovuz ob'ektiga qarab Jinoyat kodeksining boshqa boblarida joylashgan.

Demak, bojxona sohadagi jinoyatlarning aksariyati ko'p ob'ektlilik xususiyatiga ega degan xulosaga kelamiz. To'rtinchidan, bojxona sohasidagi jinoyatlarning xarakterli xususiyati - bu ushbu harakatlarni sodir etishning maxsus usuli bo'lib, ushbu sohadagi jinoyatlarni sodir etish usuli sifatida quyidagi harakatlar qo'llanilishi mumkin: – tovarlar, ishlar (xizmatlar), sotish yoki almashish ob'ekti bo'lgan har qanday mulkni import (olib kirish) va eksport (olib chiqish) qilish bo'yicha operatsiyalar; – bojxona chegarasini to'g'ridan-to'g'ri kesib o'tish, shuningdek, axborot telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda va valyuta operatsiyalarini o'tkazish orqali yuqoridagi harakatlarni amalga oshirish. Beshinchidan, bojxona sohasidagi jinoyatlarning xarakterli xususiyati - bu uni sodir etishdan asosiy maqsad iqtisodiy foyda olishdir. E'tirof etish joizki, bojxona sohasidagi jinoyatlarni sodir etishdan asosiy maqsad moddiy manfaatdorlik hisoblanadi. Bunday moddiy manfaatdorlik turlicha bo'lishi mumkin: - belgilangan soliq, boj va boshqa majburiy to'lovlarni to'lamaslik; - davlat mulkini o'zlashtirish; - kapitalni shu jumladan milliy va xorijiy valyutadagi pul mablag'larini mamlakat tashqarisiga noqonuniy olib chiqish; - jinoiy daromadlarni legallashtirish; - boshqacha shakldagi moddiy manfaatdorlik. Bojxona bilan bog'liq jinoyatlar asosan soliq, boj va boshqa majburiy to'lovlarni kamroq to'lash yoki umuman to'lamaslik maqsadida sodir etiladigan bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish jinoyatlaridir.

Ushbu jinoyatlar bojxona to'lovlari va yig'imlar hisobidan budjetga pul tushishini cheklab, valyuta zaxiralarining shakllanishiga va milliy valyutamizning barqarorligini ta'minlashga salbiy ta'sir o'tkazmoqda. Bu esa ijtimoiy rivojlanishning salbiy omili bo'lib, uning keng ko'lamda yoyilishi iqtisodiy islohotlarga real tahdiddir. Sud-tergov amaliyoti misollarini tahlil qilish asosida bojxona sohasidagi jinoyatlarning aksariyati g'arazli motivlar asosida, ya'ni iqtisodiy daromad

olishni ko'zlab sodir etiladi, degan xulosaga kelish mumkin. Bojxona sohasidagi jinoyatlarning ushbu xususiyati huquqiy ta'limotning ko'plab vakillari tomonidan e'tirof etilgan. Barcha bojxona jinoyatlarining belgilarini hisobga olgan holda huquqbuzarlar tomonidan ob'ektlarga tajovuz puxta o'ylangan holda sodir etiladi. Shuning uchun bojxona sohasidagi jinoyatlarning sub'ektiv tomoni belgilarini hisobga olgan holda barcha jinoiy qilmishlar aybning qasddan sodir etish shaklida namoyon bo'ladi. Shu o'rinda, ushbu jinoyatlarni tizimlashtirishda bojxona sohasidagi jinoyatlarni tasniflashning o'ziga xos xususiyatlarga to'xtalib o'tmoqchimiz. Jinoyatchilikka qarshi kurashish muammolarini o'rganuvchi huquqshunos olimlar ham jinoyatlarni tasniflashadi.

Aksariyat hollarda jinoyatlarni tasniflash kriminalistik yondashuvlardan kelib chiqadi.

M.X.Rustamboevning fikriga ko'ra, jinoyatlarni tasniflash deganda, jinoyatlarni u yoki bu belgilariga ko'ra turkumlarga ajratish tushuniladi. Jinoyat huquqida jinoyatlarni tasniflashda quyidagi ikki mezon nazarda tutilgan bo'lib, jinoyat qonunchiligida jinoyatlar aynan ana shu mezonlar asosida tasniflangan:

1. Jinoyatlarning ob'ekti (tajovuz qaratilgan ob'ekt)ga ko'ra tasniflash;
2. Jinoyatlarning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasiga qarab tasniflash. Jinoyatlarni ob'ektiga ko'ra tasniflash usuli O'zbekiston Respublikasi JK Maxsus qismi bo'lim va boblarining jamiyatdagi ahamiyatiga qarab muayyan bo'limlar va boblar tizimida joylashtirishda foydalanilgan.

Jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik darajasiga qarab tasniflash mezonlari O'zbekiston Respublikasi Jkning 15-moddasida aniq belgilab qo'yilgan. Chet el olimlarining qarashlarida, jinoyatlarni tasniflash va guruhlariga bo'lishning asosiy mezoni jinoyatlarning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasi hisoblanadi. Jinoyatlarni tasniflashning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasi mezoni ham ikki belgi: a) aybning shakllari (qasd yoki ehtiyotsizlik); b) Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan sanksiyalar (ularning og'irlik darajasi)ga bog'liq bo'ladi⁶. Ushbu tasniflash barcha jinoyatlarni, shu jumladan: ham umumjinoiy, ham iqtisodiy jinoyatlarni farqlash uchun taklif etiladi. Shuning uchun ham uni tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi jinoyatlarga to'liq tatbiq etib bo'lmaydi. Shu bilan birga, ushbu tasniflashdagi bir qator asoslar ko'rib chiqilayotgan jinoyatlarni guruhlash uchun foydali bo'ladi. Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda, jinoyat ko'zlangan maqsadiga qarab turli asoslarda tasniflanadi degan xulosaga kelish mumkin. Masalan: tajovuz ob'ektiga; ijtimoiy xavflilik darajasiga; qilmishning xususiyatiga (harakat, harakatsizlik); aybdorlik shakliga (qasddan, ehtiyotsizlik oqibatida); kriminologik va kriminalistik xususiyatiga ko'ra va boshqalardan iborat. Bojxona sohasidagi jinoyatlarning tasnifi yuqoridagi muammolarni hal qilish uchun bir-biriga ierarxik jihatdan bog'langan, o'zaro aloqada bo'lishi lozim. Buning uchun barcha tasnifiy bog'lanishlarni shunday ajratish kerakki, har bir keyingi bog'lanishlar avvalgisining bir qismi bo'lishi va to'ldirishi kerak. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, bojxona sohasidagi jinoiy huquqbuzarliklarni quyidagi asoslarga ko'ra tasniflashimiz mumkin.

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga muvofiq, jinoiy harakatlarning jinoiy-huquqiy tavsifi bo'yicha tasniflash. Ushbu asos bo'yicha barcha bojxona sohasidagi jinoyatlarni ikkita kichik guruhga ajratishimiz mumkin bo'ladi. Birinchi guruhga tovar va boshqa buyumlarni

⁶ Kadirov M.M. Ugolovnoe pravo Respubliki Uzbekistan. Osobennaya chast'. Uchebnik. / Pod redaktsiey d.yu.n., prof. U.Tadjixanova. - Tashkent: Adolat. 1997. - S. 204. 20.

bojxona chegarasidan bevosita o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan, O'zbekiston Respublikasi JKning 182-moddasida ko'rsatilgan - "Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish", 246-modda "Kontrabanda", shu bilan birga, dispozitsiyasida bojxona chegarasidan o'tkazish ham nazarda tutilgan 130-modda "Pornografik mahsulotni tayyorlash, olib kirish, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish", 130¹ -modda "Zo'ravonlikni yoki shafqatsizlikni targ'ib qiluvchi mahsulotni tayyorlash, olib kirish, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish", 244³ -modda "Diniy mazmundagi materiallarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, olib kirish yoki tarqatish", 244⁴ -modda "Uchuvchisiz uchadigan apparatlarni qonunga xilof ravishda olib kirish, o'tkazish, olish, saqlash yoki ulardan foydalanish" va 250¹ -modda "Pirotexnika buyumlarining qonunga xilof muomalasi" jinoyatlarini kiritish mumkin. Ikkinchi guruhga bojxona faoliyatini amalga oshirish jarayonida sodir etiladigan iqtisodiy jinoyatlarning boshqa turlari kiradi. Ularning spektri, doirasi (turi, ko'rinishi) xilma-xil bo'lishi mumkin. Shuning uchun biz faqat bojxona faoliyatining o'ziga xos xususiyati bilan bog'liq bo'lgan va amaliyotda ko'p aniqlanadigan jinoyatlarni ajratib ko'rsatamiz. Xususan, Jinoyat kodeksining 175-moddasi "O'zbekiston Respublikasi manfaatlariga xilof ravishda bitimlar tuzish"; 177-moddasi - "Valyuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o'tkazish"; 178-moddasi - "Chet el valyutasini yashirish"; 184-moddasi - "Soliq va boshqa to'lovlardan bo'yin tovlash" va jinoyat kodeksining ayrim tegishli moddalarida ko'rsatilgan iqtisodiyot asoslari, xo'jalik faoliyati sohasidagi, tadbirkorlik faoliyatiga to'sqinlik qilish, qonunga xilof ravishda aralashish bilan bog'liq jinoyatlar hamda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga tajovuz qiladigan boshqa jinoyatlar (185¹, 186¹ -186³, 188-190, 192¹ -192¹¹ -moddalari), boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar (205-214, 223-224, 227, 228-228¹ -moddalari), shuningdek, JK 243-moddasidagi "Jinoiy yo'l bilan kiritilgan daromadlarni legalizatsiya qilish" kabi jinoyatlarni kiritish mumkin. Jinoyatlarni bunday tarzda tasniflash bojxona sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashuvchi tuzilmalarni, shu jumladan bojxona organlarini aniq turdagi jinoyatlarni fosh etish, aniqlashga yo'naltiradi.

2. Tasniflash uchun yana bir asos bo'lib, bojxona faoliyati turlari bo'lishi mumkin.

- a) tashqi savdo faoliyati;
- b) chet el investitsiyalari;
- v) erkin iqtisodiy zonalar;
- g) ofshor zonalar bilan biznes aloqalar;
- d) tovar va yuklarni tashish.

Bunday tarzda tasniflash xodimlarga faoliyat yo'nalishlarini belgilab olish, ixtisoslashishga va ularning hudud zonasini belgilashga hamda qarshi kurashish vositalarini oqilona shakllantirishga imkon beradi.

3. Tasniflash uchun asos bojxona faoliyatining muayyan bosqichi bo'lishi mumkin:

- a) shartnomalarni tuzish bosqichi;
- b) bojxona rasmiylashtiruvchi bosqichi (*deklaratsiya qilishdan boshlab tovarlarni erkin muomalaga chiqarishgacha*);
- v) tovarlarni respublikamiz bojxona hududi bo'yicha tashish (*tranzit, bojxona kuzatuv ostida yetkazib berish*);
- g) kontraktlar bo'yicha kontragentlar tomonidan o'zaro hisob-kitob qilish. Bunday tarzda tasniflash xodimlar qaysi bosqichda, qaysi yo'nalishlarga e'tiborlarini kuchaytirishlari lozimligini

belgilashda muhim ahamiyatga ega.

4. Jinoyatlarni tasniflash bojxona faoliyati qatnashchilarining toifalariga muvofiq amalga oshiriladi. Bunda yuridik va jismoniy shaxslar alohida tasniflanadi. Shundan kelib chiqib, jinoyatlar kimlar tomonidan qanday usullarda sodir etilganligini ham ajratib olish mumkin.

Alohida jinoyat sub'ektlari toifalariga qarab tasniflaganda, ularga turli bojxona faoliyati qatnashchilarini – bojxona sohasining infrastrukturasi xodimlarini, bojxona brokerlarini, bojxona rasmiylashtiruvchi bo'yicha mutaxassislarini, tashuvchilarni, bojxona omborlari, bojxona organlari mansabdor shaxslari va boshqa nazorat qiluvchi organlarning xodimlarini ajratib ko'rsatish mumkin.

5. Jinoyat sub'ektlarining tashkil etilganlik darajasiga ko'ra (bir kishi, jinoiy guruh va jinoiy uyushma tomonidan sodir etilgan jinoyat) tasniflash ushbu sohadagi jinoyatlarni tasniflashning yana bir muhim asosi hisoblanadi. Bunday tarzda tasniflash xodimlarni aniq turdagi jinoyatlarni hamda murakkab ko'rinishdagi tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida sodir etilayotgan jinoyatlarni tez va oson ochilishiga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining uchinchi bo'limi iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar sifatida ajratilib, mazkur bo'limning XII bobi Iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlar sirasiga kiradigan jinoyatlar berilgan bo'lib, aynan mazkur bobda 182-modda "Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish"⁷ normasi ham yotadi. Yuqoridagi ko'rsatilgan ta'riflardan farqli o'laroq O'zbekiston Respublikasi JKda Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish dispozitsiyasi quyidagi tarzda berilgan, jumladan, Bojxona nazoratini chetlab yoki bojxona nazoratidan yashirib yoxud bojxona hujjatlari yoki vositalariga o'xshatib yasalgan hujjatlardan aldash yo'li bilan foydalangan holda yoki deklaratsiyasiz yoxud boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalanib, tovar yoki boshqa qimmatliklarni ko'p miqdorda O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan o'tkazish deb keltirib o'tilgan. JKdagi mazkur norma o'z navbatida havolaki (blanket) norma sanaladi, ya'ni bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish nima ekanini anglash uchun albatta bojxona qonunchiligi nima ekanini bilishimiz lozim. Xo'sh ushbu dispozitsiyada berilgan bojxona nazorati nima ekanini bilish uchun O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining 21-moddasiga muvofiq, Bojxona nazorati O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalariga rioya etilishini ta'minlash uchun bojxona organlari tomonidan amalga oshiriladigan, shu jumladan xavfni boshqarish tizimi qo'llanilgan holda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar majmuidan iborat⁸ deb keltirib o'tilganini ko'rishimiz mumkin.

O'rganilgan ilmiy tadqiqotlar va adabiyotlarda bojxona sohasidagi jinoyatlar va tashqi iqtisodiy faoliyat sohadagi jinoyatlar iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarda alohida tushuncha sifatida qarash maqsadga muvofiq deyiladi.⁹

Ba'zi huquqshunoslarning fikriga ko'ra esa, tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi

⁷ O'zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksi <https://lex.uz/docs/111460>

⁸ O'zbekiston Respublikasi bojxona kodeksi <https://lex.uz/docs/2876354>

⁹ A.T Achilov "Tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq bojxona qonunchiligining buzilish jinoyatlarini jinoiy-huquqiy tartibga solishni takomillashtirish" Bojxona inistituti 2020 y. 68 b.

jinoyatlarni ajratish shart bo'lmagan, balki ular "bojxona sohasidagi jinoyatlar" hisoblanadi.¹⁰

Tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi jinoyatlar, boshqa iqtisodiy jinoyatlar singari, mamlakatning iqtisodiy xavfsizligi asoslariga tajovuz qiladi. Zamonaviy sharoitda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash juda katta ahamiyatga ega, chunki iqtisodiy globallashtirish xalqaro iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda va yagona iqtisodiy makonni shakllantirishda sifat jihatidan yangi bosqichni anglatadi.¹¹

Yuqoridagi qarashlar va fikrlarni inobatga olgan holda bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish bilan bog'liq jinoyatlarning quyidagi xususiyatlarni ajratishimiz mumkin:

- ushbu qilmishlar O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 14-moddasida jinoyat deb belgilangan;

- aynan bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan normalar va meyorlarga oid munosabatlar;

- sodir etishning maxsus usuli;

- tovarlar, ishlar (xizmatlar), sotish yoki almashish obyekti bo'lgan har qanday mulkni olib kirish va olib chiqish bo'yicha operatsiyalar, qonun hujjatlar bilan taqiqlangan hollar bundan mustasno.

Barcha iqtisodiy jinoyatlarning belgilarini hisobga olgan holda tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi jinoyatlarda ham huquqbuzarlar tomonidan obyektlarga tajovuz puxta o'ylangan holda sodir etiladi. Shuning uchun tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi jinoyatlarning subyektiv tomoni belgilarini hisobga olgan holda barcha jinoy qilmishlar aybning qasddan sodir etish shaklida namoyon bo'ladi.

Bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilishi bilan bog'liq jinoyatlarning yana bir o'ziga xos jihati shundan iboratki, mazkur jinoyat bevosita bojxona chegarasida sodir etilishi bilan birga ichki hududga ham daxldor bo'ladi aynan shu nuqtai nazardan mamlakat g'aznasiga tushishi lozim bo'lgan tushumlarning undirilmay qolishi ehtimoli nuqtai nazaridan mazkur jinoyat iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlardan biri sifatida talqin etilayotganini ko'rishimiz mumkin.

Shu bilan birgalikda bu boradagi qarashlarda A.T Achilov o'zining "Tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq bojxona qonunchiligi buzilishi jinoyatlarini jinoiy-huquqiy tartibga solishni takomillashtirish" nomli monografiyasida "O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasini kesib o'tish orqali tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish tartibiga tajovuz qiluvchi qasddan sodir etiladigan ijtimoiy xavfli qilmishlar TIF sohasidagi jinoyatlardir"¹², deb tarif beradi.

Bizningcha esa, bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilishi bilan bog'liq jinoyatni "Bojxona to'lovlarini to'lashdan bo'yin tovlash" jinoyati sifatida alohida talqin qilish va iqtisodiy jinoyatlar sirasiga kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki bojxona to'lovlari O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksiga muvofiq tovarlarni bojxona chegarasi orqali olib o'tishda va

10 Jbankov V.A. Таможенные преступления: сущность и проблемы выявления // sibir yuridik xabarlar. 2004. № 4; Grachev O.V. Понятие преступлений, посягающих на экономическую безопасность Российской Федерации в сфере таможенной интеграции // Адвокат тайпбалари. 2012. № 6.

11 A.T Achilov "Tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq bojxona qonunchiligining buzilish jinoyatlarini jinoiy-huquqiy tartibga solishni takomillashtirish" Bojxona instituti 2020 y. 68 b.

12 A.T Achilov "Tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq bojxona qonunchiligining buzilish jinoyatlarini jinoiy-huquqiy tartibga solishni takomillashtirish" Bojxona instituti 2020 y. 32 b.

ushbu kodeksda nazarda tutadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar va boshqa huquqbuzarliklar mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bozor islohotlariga jiddiy xavf tug'diradi, bozor iqtisodiga xos bo'lgan xususiy mulkchilikning, boshqa turdagi mulkiy munosabatlarning shakllanishiga va rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Jumladan O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasiga muvofiq mamlakat iqtisodiyotining negizini turli shakllardagi mulk tashkil etadi.¹³ Mulk huquqi mutlaq huquq hisoblanadiki, u bu huquqni buzadigan har qanday harakatlarni taqiqlashni taqozo qiladi.

Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar sifatida bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish jinoyatini faqatgina O'z.Resp JKning 182-moddasi bilan belgilab olish maqsadga muvofiq emas. Jumladan O'z.Resp. JKning "Soliqlar yoki boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlash" normasi ham bevosita bojxona to'lovlariga aloqador hisoblanadi.

Soliqlar yoki boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlash (*JKning 184-moddasi*) iqtisodiyot sohasida sodir etilayotgan eng xavfli jinoyatlardan hisoblanadi va bu har bir fuqaro tomonidan qonun bilan belgilangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdek konstitusiyaviy burchlarini qasddan bajarmaslikda ifodalanadi. Davlat soliq organlari va shaxslar (*jismoniy va yuridik shaxslar*) o'rtasida vujudga keladigan soliq sohasidagi huquqiy munosabatlarning qonuniyligini mustahkamlashga ko'maklashishi lozim. Ushbu huquqiy munosabatlar O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi va boshqa qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Amaliyotda bojxona Tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq bojxona qonunchiligi buzilishi jinoyatlari bo'yicha xorijiy tajriba o'rganilganda, tahlillar natijasida aksariyat davlatlar jinoyat qonunchiligida bojxona to'lovlari va yig'implari to'lashdan bo'yin tovlash uchun alohida jinoiy javobgarlik belgilangan bo'lib, milliy qonunchiligimizda esa bu borada alohida norma mavjud emas va bu JK 184-moddasi talqinida bayon qilingan.

Soliq turlarini to'lashdan bo'yin tovlash boshqa tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq bojxona sohasiga doir jinoyatlarni sodir etish yashirin iqtisodiyot shakllanishi uchun zamin yaratadi.

Qudratli iqtisodiy mustahkam davlatda yashirin iqtisodiyotning mavjudlik sharti davlat va xalq manfaatlariga putur yetkazadi. Shu sababli mamlakatda yashirin iqtisodiy omillarni oldini olish va ularni bartaraf etishga qarshi qaratilgan harakatlar amalga oshiriladi va bunga barham berish choralari ko'riladi.

Shu tariqa bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish jinoyati ham iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlardan birni sifatida qaralishi va uning o'ziga xos bo'lgan jihatlari (*bojxona qonunchiligi bilan bog'liq*) inobatga olinishi lozim.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, bojxona to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq tovarlarni olib kirish, yoki olib chiqishni taqiqlash davlat xavfsizligini ta'minlash jamoat tartibini, axloq-odobni inson hayoti va sog'lig'ini atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, O'zbekiston Respublikasi va boshqa mamlakatlarning tarixiy arxeologik va san'at yodgorliklarini himoya qilish maqsadida, shuningdek O'zbekiston Respublikasining boshqa manfaatlaridan kelib chiqqan

holda amalga oshiriladi. Tovarlarini bojxona chegarasidan o'tkazishni cheklash esa xalqaro vaziyat ichki bozorni himoya qilishdan kelib chiqib, shuningdek chet el davlatlari va ittifoqlarining O'zbekiston Respublikasi manfaatlarini kamsituvchi yoki ularga ziyon yetkazuvchi harakatlariga javoban choralar sifatida o'rnatiladi.

Bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish bilan bog'liq jinoyatlar bojxona chegarasi orqali tovar va transport vositalarini olib o'tish, boj to'lovlarini undirish, bojxona rasmiylashtiruv, bojxona nazoratini amalga oshirish tartibi va shartlaridan hamda bojxona siyosatini amalga oshirishning boshqa vositalaridan iboratdir. Jonatan Herringning ta'kidlashicha, "qonunchilik nuqtai nazaridan bojxona ishi davlat iqtisodiy faoliyatining kontrabanda va boshqa bojxona sohasiga oid sodir etilgan jinoyatlardan bir sifatida qaraladi".¹⁴

Bizning fikrimizcha esa, bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish jinoyati davlat va jamiyat manfaatlariga zarar keltiruvchi iqtisodiyot sohasidagi jinoyat sifatida qaraladi. Bu sohadagi jinoyatlar turg'un va jadal iqtisodiy munosabatlarga zarar yetkazishi bilan birgalikda jamiyatdagi sog'lom iqtisodiy raqobat jarayonlariga ham ta'sir o'tkazadi.

Bojxona sohasidagi jinoyatchilik sabablari va shart-sharoitlari jinoyatning sodir etilishiga imkon berayotganligini aniqlash, mazkur sohadagi jinoyatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Keng ma'noda jinoyatchilik sabablari deganda, uning mavjudligini belgilovchi barcha omillar hisoblanishi mumkin, ammo bu omillarning hammasi bir xil ahamiyat kasb etmaydi.

Ularning ayrimlari jinoiy motivlarning ro'yobga chiqarilishi uchun imkoniyat yaratadi, ayrimlari esa bu imkoniyatni voqelikka aylantiradi. Ayni shu sababli birinchi turdagi omillar shart-sharoitlar sifatida, ikkinchi turdagi holatlar esa sabablar sifatida qaralishi lozim.

Jinoyatchilikning sabablari bilan bir qatorda jinoyatlar sodir etilishiga imkoniyat yaratuvchi shart-sharoitlar ham mavjuddir. Jinoyatlar sodir etilishiga imkoniyat yaratuvchi shart-sharoitlar deganda, real voqelikning o'zi jinoyatchilik (oqibat)ni vujudga keltira olmaydigan, lekin mavjudligi insonda jinoyat sodir etish niyati tug'ilishiga turtki berishi mumkin bo'lgan hodisalar yig'indisi tushuniladi. Bojxona sohasidagi jinoyatlar sodir etilishini belgilovchi ma'naviy-axloqiy omillar (sabab) tizimi turlichadir. **Birinchi**dan, ayrim TIF subyektlarining bojxona sohasida yetarli bilimlarga ega emasligi. Bunday sharoitda qonunga xilof yo'llar bilan bo'lsa ham yengil yo'l bilan pul topib, boyluk orttirishga intilish kuchayadi, fuqarolarning huquqiy ongi, madaniyati va xulq-atvori kriminogen vaziyat ta'siri ostida qoladi. **Ikkinchi**dan, tadbirkorlik subyektlari orasida huquqiy nigilizmning tarqalganligi tufayli ayrim fuqarolar qonunlarda, jumladan Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan soliq yoki boshqa majburiy to'lovlarni to'lash kabi burchlarini bajarmaydilar. Huquqiy nigilizm nafaqat konstitutsiyaviy burchni bajarmaslik, balki mamlakatda o'rnatilgan soliq va bojxona qonunchiligini rad etishda ham namoyon bo'ladi

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5618-sonli Farmoni bilan "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Konsepsiyasi" tasdiqlangan

¹⁴ Jonatan Herring . Criminal Law: Text cases and materials/ Oxford United Kingdom; New York: Oxford University press [2014]P 936

bo‘lib, unda inson huquq va erkinliklariga hurmat munosabatini shakllantirishga, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda fuqarolarning huquqiy savodxonligi darajasini oshirishga to‘sqinlik qiluvchi bir qator muammo va kamchiliklar saqlanib qolingani ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, hozirgi globallashtirish, ilmiy texnik taraqqiyot davrida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishning innovatsion usullaridan, targ‘ibotning ilg‘or va ta‘sirchan vositalaridan, xorijiy davlatlarning bu boradagi ijobiy tajribalaridan yetarli darajada foydalanilmayotganligi alohida ta‘kidlab o‘tilgan¹⁵.

Bojxona sohasidagi jinoyatlar sodir etilishida imkoniyat yaratuvchi asosiy iqtisodiy omil sifatida mamlakatda “yashirin iqtisodiyot”ning mavjudligini ko‘rsatib o‘tishimiz mumkin. “Yashirin iqtisodiyot” yoki ushbu noqonuniy (*jinoiy*) hodisa doimo huquqshunoslar, sotsiologlar, kriminologlar, siyosatshunoslar, iqtisodchilar, huquq-tartibot idoralari vakillari va jamoatchilikning e‘tiborini tortib keladi. Tovar va xizmatlarni noqonuniy ishlab chiqarish, daromadni yashirish, hisobga olinmagan naqd pul aylanmasi, noqonuniy daromadlarni legallashtirish, korrupsiya va xizmat lavozimlarini suiiste‘mol qilish va yashirin faoliyatning boshqa ko‘rinishlari rasmiy iqtisodiyotning doimiy ta‘qibchilaridir. Bojxona sohasidagi jinoyatlar ham “yashirin iqtisodiyot” ko‘rinishlaridan biri hisoblanadi¹⁶.

Yashirin iqtisodiyot ulushi katta bo‘lgan sharoitda davlatning tartibga solish siyosati samaradorligi pasayadi. Bundan tashqari, iqtisodiyotning rasmiy sektorida samarasiz yuqori soliq stavkalar va ortiqcha (byurokratik) tartibga solish mexanizmlari xo‘jalik sub‘ektlarining rasmiy sektorda qolish narxini oshiradi va yashirin sektorining o‘sishiga olib keladi¹⁷.

Xalqaro konsalting kompaniyalari bilan hamkorlikda O‘zbekistonda yashirin iqtisodiyot ko‘rsatkichi 48 foizdan 62 foizgacha ekanligi aniqlangan.

Yashirin iqtisodiy faoliyat asosan latent, ya‘ni yashirin xususiyatga ega bo‘lib, uni amalga oshirish usullari doimiy o‘zgaruvchanlik, murakkablashib borish, turli sxemalar orqali sodir etilishi kabi xususiyatlarga ega. Bu esa ularni aniqlash va fosh etish murakkab ekanligini anglatadi¹⁸.

Bojxona sohasidagi jinoyatlarni sodir etilishida imkoniyat yaratuvchi ijtimoiy omillar doirasi ham ancha kengdir. Xususan, iqtisodiyot sohasidagi jinoyatchilikning o‘shirish sur‘atlari jadallashtirishga aholining daromadlar darajasiga ko‘ra tabaqalanishi ayniqsa kuchli ta‘sir ko‘rsatdi.

Bunday tabaqalanish jamiyatda ijtimoiy keskinlikni kuchaytiradi.

Mazkur muammoning yana bir o‘ziga xos xususiyati shundaki, tadbirkorlik subyektlarining moddiy ahvoli qancha yomon bo‘lsa, bojxona qonunchiligini buzish va bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovlashga turtki beruvchi omillarning ta‘siri shuncha kuchli bo‘ladi. Jumladan, barcha bojxona majburiyatlarining bajarilishi jismoniy yoki yuridik shaxsning iqtisodiy holatini yomonlashtirishi, hatto uning tugatilishiga ham sabab bo‘lishi mumkin. Ayni shu sababli tadbirkorlik subyekti bojxona qonunchiligini buzish va bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin

¹⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-sonli Farmoni, <https://lex.uz/docs/4149765>

¹⁶ Achilov A.T. Tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bog‘liq bojxona qonunchiligini buzish va jinoyatlarini jinoiy-huquqiy tartibga solishni takomillashtirish // Monografiya-Toshkent: BI, 2020-y. – 230 b.

¹⁷ Yashirin iqtisodiyot. O‘quv qo‘llanma: jamoa muallifligida. – T.: DBQ BI, 2020, 235 b.

¹⁸ Turdiev S.B. “Yashirin iqtisodiyot”ni qisqartirish va unga qarshi samarali kurashish yo‘llari // URL: http://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/7_Turdiyev.pdf

tovlashni hayot kechirishning yagona yo'li, deb hisoblashi mumkin.

Aholi daromadlarining kamligi mazkur jinoyatlarni keltirib chiqaruvchi asosiy sabablardan biridir. Aynan savdo yoki vositachilik faoliyati bilan qonunga xilof ravishda hamda faoliyat bilan litsenziyasiz shug'ullanish natijasining tannarxi qonuniy tadbirkorlik faoliyati subyektlarining ish natijasidan ancha past bo'ladi, sababi, mazkur jinoyat bilan shug'ullanayotgan shaxs davlatga hech qanday soliq yoki boshqa majburiy to'lovlarni to'lamaydi va ishlab chiqarayotgan mahsulot sifatiga nisbatan mas'uliyat sezmaydi. Bu esa o'z navbatida bunday shaxslarga ishlab chiqargan mahsulotini arzon bahoda bozorga chiqarish imkoniyatini vujudga keltiradi. Aholining kam daromadga ega bo'lishi bu holda ular uchun ayni muddaodir. Tabiiyki, kam daromadga ega bo'lgan aholini mahsulotning sifati emas, balki uning bahosi qiziqtiradi¹⁹. O'zining moddiy ahvolini bojxona qonunchiligini buzish va bojxona to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlash yo'li bilan boyitishga tayyor bo'lgan tadbirkorlar va fuqarolar soni ko'payadi.

Tadbirkorlik subyektlariga bojxona qonunchiligini buzish va bojxona to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlash yoki boshqa g'ayriqonuniy harakatlarni sodir etish imkoniyatini beruvchi tashkiliy-boshqaruv sohasidagi kamchilik (omil)lar orasida tadbirkorlik subyekti sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazish va tadbirkorlik faoliyati sohasidagi litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillari bilan bog'lik kamchiliklar alohida o'rin egallaydi.

Jumladan, hozirga qadar tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda yuzaga keladigan har qanday ruxsatnomalar berish va hisobga olish ishlarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish asosida ularning davlat organlari bilan o'zaro munosabatlarida bevosita muloqot qilmaydigan shakllardan to'liq foydalanilmasdan kelinmoqda.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 11-aprel kunidagi "Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini yanada qisqartirish va soddalashtirish, shuningdek biznes yuritish sharoitlarini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5409-sonli Farmonida tadbirkorlik sohasini davlat tomonidan tartibga solishning byurokratlashgan metodlari hali ham saqlanib qolinayotganligi, bu esa o'z navbatida, mahalliy biznesning raqobatdoshligini jadal rivojlantirish, ishbilarmonlik muhitiga yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni tatbiq qilish, qulay investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhitini yaratish bo'yicha davlat siyosatining izchilligiga bo'lgan ishonchni mustahkamlashga to'sqinlik qilishi ta'kidlab o'tilgan²⁰.

Iqtisodiy munosabat qatnashchilarining ko'plab ma'muriy to'siqlarga uchrashi ham mazkur jinoyatlarni keltirib chiqaruvchi asosiy sabablardan biridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-iyunda "Bojxona ma'muriyatchiligini isloh etish va O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi PF-6005-son Farmonida bojxona siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirishga to'sqinlik qilayotgan bir qator tizimli muammo va kamchiliklar hamon saqlanib qolayotganligi ta'kidlangan²¹.

Bu kabi kamchiliklarni bartaraf etish uchun tadbirkorlik subyekti sifatida ro'yxatdan

¹⁹ Abduqodirov Sh.Yo. Qonunga xilof tadbirkorlikka qarshi kurashning jinoyat- huquqiy va kriminologik muammolari. Yurid. nomz. ... diss. - Toshkent: TDYUI, 2007. - B. 124.

²⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 11-apreldagi PF-5409-sonli Farmoni, <https://lex.uz/docs/3676955>.

²¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-iyundagi PF-6005-son Farmoni, <https://lex.uz/docs/4844615>.

o‘tkazish tartibini yanada soddalashtirish, ruxsatnoma va litsenziyasiz faoliyat yuritishga qarshi kurash mexanizmi kuchaytirilishi lozim. Shuningdek, bojxona ma‘muriyatchiligini isloh etish, bojxona organlari faoliyatini yanada takomillashtirish hamda samaradorligini oshirish, “qog‘ozsiz va elektron bojxona”ning mantiqiy davomi va rivojlanishi bo‘lgan “raqamli bojxonani” shakllantirish, shu bilan birga bojxona ishi sohasidagi umume’tirof etilgan xalqaro norma va standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilishni jadallashtirish lozim. Zero, tadbirkorlik subyektlarini ro‘yxatdan o‘tkazish, ruxsatnomalar berishning soddalashtirilgan tartibi va bojxona ma‘muriyatchiligining zamonaviy va sinovdan o‘tkazilgan usullarini qo‘llash kriminal faollik, bojxona qonunchiligi buzilishi, ayniqsa soliqlar yoki boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tovlashning kamayishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bojxona qonunchiligi buzilishi jinoyatlari miqdorining ko‘payishiga imkoniyat yaratuvchi huquqiy omillardan biri amaldagi bojxonaga oid qonunchilikning kengligi, murakkabligi va qonunchilikka doimiy ravishda kiritiluvchi o‘zgartirishlardir. Bojxona qonunchiligi juda keng qamrovli munosabatlarni tartibga solishi va murakkabligi bilan ajralib turadi. Soliq va bojxona sohasiga doir normativ-huquqiy baza yuzdan ortiq qonunlar, Prezident farmonlari, Hukumat qarorlari, soliq va bojxona idoralarining yo‘riqnomalari va tushuntirishlarini o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga amaldagi bojxona qonunchiligiga doimiy ravishda kiritilayotgan o‘zgartirishlar qo‘shimcha qiyinchiliklar tug‘diradi.

Ayrim tadqiqotchilar soliq va bojxona to‘lovlariga oid ma‘lumotlarning aniq emasligi, havolaki hujjatlarning ko‘pligi, jinoyatchi shaxsining professionallik darajasi va huquqiy nigilizmi mazkur sohadagi jinoyatlarni sodir etilishining asosiy sabablari deb hisoblaydilar²².

Bojxona sohasiga jinoyatlarining sodir etilishiga quyidagi sabablarni ham keltirib o‘tishimiz mumkin:

- huquqni muhofaza qiluvchi organlarda, shuningdek, bojxona organlari, banklar, birjalar, ekspert tashkilotlari va boshqa sohalarda davlat tomonidan nazorat qilish funksiyalariga ega amaldor shaxslar o‘rtasida nopok shaxslar mavjudligi va ularning xufiyona biznes vakillari bilan birlashib ketganligi;

- bojxona organlarining zamonaviy texnika nazorati vositalari bilan yetarli darajada ta‘minlanmaganligi va chegaralarning texnik-muhandislik jihatdan mustahkam emasligi;

- huquqni muhofaza qiluvchi va davlat nazorat organlari o‘rtasida bojxona sohasida huquqbuzarlikka qarshi kurashish masalalari bo‘yicha o‘zaro mustahkam hamkorlik o‘rnatilmaganligi;

- tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga soluvchi nazorat organlari bilan mavjud bo‘lgan hamkorlikni belgilovchi me‘yoriy hujjatlarning mukammal emasligi va mavhumligi;

- bojxona organlari tezkor (operativ) kuchlarining jinoyatchilikka qarshi kurashish uchun kasbiy tayyorgarligining sayozligi, ushbu yo‘nalishda informatsiyaviy-operativ-iqtisodiy, tahliliy ishlarining past darajada tashkil etilganligi va malakali tezkor xodimlar apparati shakllantirilmaganligi va hokazolar²³.

²² James Alm. Measuring, Explaining, and Controlling Tax Evasion: Lessons from Theory, Experiments, and Field Studies // Working Paper 1213. July 2012.

²³ Achilov A.T., Sheraliyev B.Yu., “Tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi jinoyatlarni oldini olish, fosh etish va ular bo‘yicha bojxona tekshiruvlarini o‘tkazish uslubi”. O‘quv-uslubiy qo‘llanma Toshkent: 2015.

Shuni ta'kidlash lozimki, bojxona sohasida ijtimoiy munosabatlarning kriminallasuvi keng qamrovli bo'lib, u ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va madaniy sohalarni qamrab oladi.

Xususan, bularning barchasiga puxta o'ylanmagan bozor islohotlari, noqulay investitsiya muhiti, kapitalning yetarli darajada himoyalalmaganligi, inflyatsiyaning yuqori darajasi, me'yoriy-huquqiy bazaning yetishmasligi (*birinchi navbatda, tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solish to'g'risidagi qonun hujjatlari, bojxona, soliq, valyuta qonunchiligi*), tashqi iqtisodiy faoliyatda operatsiyalar ustidan davlat nazoratining past darajadagi nazorati, intellektual faoliyat natijalarining himoyasizligi, milliy valyutani qadrsizlanishi va huquqiy ongning pastligini ko'rsatishimiz mumkin.

Endilikda, bojxona chegarasi orqali tovar moddiy boyliklarini qonunga xilof ravishda olib o'tish bilan bog'liq holatlarni oldini olish, ular bo'yicha javobgarlikni takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi JKning 182-moddasida belgilangan jinoiy javobgarlikni xalqaro va milliy qonunchilik talablariga moslashtirish lozim bo'ladi.

Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 5 iyundagi "O'zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonini jadallashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-181-sonli qarorida, Adliya Vazirligiga milliy qonunchilikni JST bitimlariga uyg'unlashtirish yuklatilib, 2023 yil 1 iyuldan boshlab JST qoidasiga va me'yorlariga muvofiq bo'lmagan normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish taqiqlangan²⁴.

Ma'lumki, Jahon savdo tashkilotining savdoni yengillashtirish va davlatlar o'rtasidagi tovarlar, xizmatlar savdosini rivojlantirish bo'yicha belgilangan talablari O'zbekiston Respublikasi tomonidan 2020 yil 21 dekabrda ratifikatsiya qilingan "Bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va uyg'unlashtirish to'g'risida"gi xalqaro konvensiya (Kioto)sining talablari bilan mos hisoblanadi.

Bojxona organlari o'z vakolatlari doirasida mamlakatimizning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashga hissa qo'shishi bilan bir qatorda bojxona to'lovlarini undirish orqali fiskal vazifani bajarishi bilan ajralib turadi.

Bojxona to'lovlari tashqi savdo operatsiyalarini maqbul darajada tartibga solish maqsadida davlat tomonidan foydalaniladigan asosiy dastaklardan biri hisoblanib, ichki bozorni rivojlantirish hamda eksport imkoniyatlarini oshirishga ham xizmat qiladi. Bojxona to'lovlari asosan, import tovarlardan undiriladigan majburiy to'lovlar bo'lib, uning tarkibiga bojxona boji, aksiz va qo'shilgan qiymat soliqlari hamda yig'imlar kiradi. So'nggi yillarda bojxona to'lovlarining barcha turlari bo'yicha undirilgan mablag'lar o'sib kelmoqda²⁵.

Mavjud ma'lumotlar tahliliga ko'ra, tovarlarni bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazish jarayonida tashqi iqtisodiy faoliyat (TIF) ishtirokchilari tomonidan Davlat budjetiga bojxona to'lovlarini to'lashdan bo'yin tovlash bilan bog'liq holatlar yildan yilga ortib bormoqda.

Shu o'rinda, bojxona sohasidagi barcha tovarlarni olib kirish va ularni xududdan olib chiqish quyidagi:

- 1) eksport;

²⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 02.06.2023 yildagi PQ-181-sonli Qarori.

²⁵ Yashirin iqtisodiyot. O'quv qo'llanma: jamoa muallifligida. – T.: DBQ BI, 2020, 77 b.

- 2) reeksport;
- 3) vaqtincha olib chiqish;
- 4) bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash;
- 5) erkin muomalaga chiqarish (import);
- 6) reimport;
- 7) vaqtincha olib kirish;
- 8) bojxona hududida qayta ishlash;
- 9) vaqtincha saqlash;
- 10) bojxona ombori;
- 11) erkin ombor;
- 12) erkin bojxona zonasi;
- 13) boj olinmaydigan savdo;
- 14) bojxona tranziti;
- 15) yo‘q qilish;

16) davlat foydasiga voz kechish kabi bojxona rejimlari asosida amalga oshirilishini takidlab o‘tishimiz joizdir²⁶.

Bojxona sohasidagi jinoyat qonunchiligini takomillashtirishning muhim yo‘nalishlaridan biri bu – bojxona sohasiga oid xalqaro hujjatlar (konvensiyalar)ning talablarini va xorijiy davlatlar tajribasini o‘rganish hamda ularning ijobiy xususiyatlarini milliy qonunchilikka joriy etish hisoblanadi. Buning sababi shuki, milliy jinoyat qonunchiligini bojxona sohasiga oid xalqaro hujjatlar (konvensiyalar)ning talablari hamda xorijiy mamlakatlarning jinoyat qonunchiligi bilan qiyosiy o‘rganish uning afzalliklarini aniqlash va yurtimizda jinoiy qonunchilikni rivojlantirish istiqbollari chuqurroq anglab yetishga yordam beradi.

Shuningdek, qonun loyihalarini xorijiy huquqiy amaliyot bilan har tomonlama chuqur qiyosiy tahlil qilish asosida ularni muhokama etish va sifat jihatidan yanada yuqori bosqichga ko‘tarishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Bojxona sohasidagi huquqbuzarliklar uchun javobgarlik bilan bog‘liq masalalar ko‘pchilik xorijiy mamlakatlar qonunchiligida dolzarbdir.

Mamlakatimizdagi bojxona sohasidagi munosabatlarni tartibga solishning jinoiy-huquqiy normalarini har tomonlama o‘rganish (tadqiq qilish) uchun bojxona sohasiga oid xalqaro hujjatlar (konvensiyalar)ning talablarini milliy bojxona qonunchiligiga kiritish, shuningdek, ushbu sohadagi xorijiy mamlakatlar qonunchiligini qiyosiy tahlil qilish orqali bojxona sohasiga oid xalqaro hujjatlar (konvensiyalar)ning talablarining va xorijiy tajribaning afzalliklari va kamchiliklarini aniqlash imkoniyatini beradi va kelgusida bojxona sohasiga oid xalqaro hujjatlar (konvensiyalar)ning talablarini va ilg‘or xorijiy tajribani o‘zimizga moslashtirish asosida qonunchiligimizni takomillashtirish bo‘yicha takliflarni shakllantirish mumkin bo‘ladi.

Biroq, xorijiy tajribani qabul qilish ulardagi huquqiy normalarni qonunchiligimizga to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘chirish degan ma‘noni anglatmasligi kerak. Shunga asosan, biz bojxona sohasidagi jinoyatlarni xorijiy jinoyat qonunchiligini tahlil qilishga va mamlakatimiz jinoyat qonunchiligini takomillashtirish bo‘yicha asosli takliflar kiritishga harakat qilamiz.

²⁶ O‘zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi.

Shu jihatdan qaralganda bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish jinoyati bo'yicha ayrim xorijiy davlatlar qonunchiligi tahlil etilganda ularni shartli ravishda ikkita guruhga ajratish mumkin:

birinchi guruh – bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish bilan bog'liq qilmishlar uchun bir nechta jinoyat tarkibi belgilangan davlatlar (Rossiya Federatsiyasi, Latviya, Moldova, Armaniston, Ozarbayjon, Turkmaniston, Tojikiston, Qirg'iziston, Gruziya, Bolgariya, Mongoliya, Belarus Respublikasi, Gresiya, Daniya, Finlyandiya, Qozog'iston, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi);

ikkinchi guruh – “bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish” deb nomlangan alohida jinoyat tarkibi mavjud bo'lmagan, ammo uning ayrim shakllari uchun javobgarlik nazarda tutilgan davlatlar (Fransiya, Polsha, Germaniya Federativ Respublikasi, Shvesiya, Ispaniya, AQSh, Shveysariya, Angliya)²⁷.

Dastlab MDH mamlakatlarda bojxona sohasidagi munosabatlarni jinoiy huquqiy tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganamiz. Ko'rib chiqilayotgan davlatlarning jinoyat qonunchiligi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidan sezilarli darajada farq qilmaydi, ammo shunga qaramay, tadqiqotimiz uchun qiziqarli bo'lgan o'ziga xos xususiyatlarga ega.

O'zbekiston Respublikasi bilan bir xil huquqiy tizimdagi MDHga a'zo aksariyat davlatlarda “bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish” deb nomlangan yagona jinoyat tarkibi mavjud emas. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Rossiya Federatsiyasi, Moldova, Armaniston, Ozarbayjon, Turkmaniston, Tojikiston, Qirg'iziston, Belarus Respublikasi, Qozog'iston jinoyat qonunchiligida bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish bilan bog'liq qilmishlar uchun bir nechta jinoyat tarkibi belgilangan. Mazkur holat MDHga a'zo mamlakatlar jinoyat qonunlarining 1996 yilgi MDH mamlakatlari uchun model Jinoyat kodeksiga asosan ishlab chiqilganligi bilan bog'liqdir.

Bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish jinoyatini tahlil qilishda Qozog'iston jinoyat qonuni ham o'ziga xos xususiyatlarga egaligini qayd etish lozim. Jumladan, Qozog'iston JKda uchta moddada bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish bilan bog'liq quyidagi qilmishlar ko'rsatilgan bo'lib ular quyidagilardir:

a) Qozog'iston Respublikasi Jinoyat kodeksining 234-moddasida iqtisodiy kontrabanda uchun javobgarlik belgilangan. Unga ko'ra Bojxona ittifoqiga a'zo davlatlar chegarasidan o'tkazilishi taqiqlangan yoki o'tkazish uchun tegishli ruxsat talab etiladigan tovar yoki boshqa predmetlarni bojxona nazoratini chetlab yoki bojxona nazoratidan yashirib yoxud bojxona hujjatlari yoki vositalariga o'xshatib yasalgan hujjatlardan aldash yo'li bilan foydalangan holda yoki deklaratsiyasiz yoxud boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalanib ko'p miqdorda o'tkazganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

b) Qozog'iston Respublikasi Jinoyat kodeksining 236-moddasida esa ko'p miqdordagi bojxona to'lovlari va yig'imlarini to'lashdan bo'yin tovlaganlik uchun javobgarlik o'rnatilgan.

v) Qozog'iston Respublikasi Jinoyat kodeksining 286-moddasida muomaladan chiqarilgan predmetlar hamda muomala qilish cheklangan predmetlar kontrabandasi uchun jinoiy javobgarlik

²⁷ Achilov A.T. Tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq bojxona qonunchiligi buzilishi jinoyatlarini jinoiy-huquqiy tartibga solishni takomillashtirish //Monografiya-Toshkent: BI,2020-y.–230 b.

belgilangan. Mazkur jinoyat ob'ektiv tomondan Bojxona ittifoqiga a'zo davlatlar chegarasidan muomaladan chiqarilgan yoki muomala qilish cheklangan tovar yoxud boshqa predmetlarni bojxona nazoratini chetlab yoki bojxona nazoratidan yashirib yoxud bojxona hujjatlari yoki vositalariga o'xshatib yasalgan hujjatlardan aldash yo'li bilan foydalangan holda yoki deklaratsiyasiz yoxud boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalanib o'tkazganlikda ifodalanadi²⁸.

Moldova Respublikasi jinoyat qonunida ham bojxona to'g'risidagi i qonun hujjatlarini buzish bilan bog'liq jinoyatlar kontrabanda deb nomlanib, Moldova Respublikasi JKning 248-moddasida o'z aksini topgan. Mazkur moddaning birinchi qismida tovarlar, ashyolar va boshqa boyliklarni, ikkinchi qismida dori vositalari, etnobotanikalar, kuchli ta'sir etuvchi, zaharli, zaharli, radioaktiv va portlovchi moddalar, shuningdek xavfli chiqindilarni, uchinchi qismida qurol, qurol, portlovchi qurilmalar, o'q-dorilarni, to'rtinchi qismida madaniy boyliklarni bojxona nazoratini chetlab yoki bojxona nazoratidan yashirib yoxud bojxona hujjatlari yoki vositalariga o'xshatib yasalgan hujjatlardan aldash yo'li bilan foydalangan holda yoki deklaratsiyasiz yoxud boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalanib ko'p miqdorda o'tkazganlik uchun javobgarlik belgilangan.

Moldova Respublikasi Jinoyat kodeksining 249-moddasida esa ko'p miqdordagi bojxona to'lovlari va yig'imlarini to'lashdan bo'yin tovlaganlik uchun javobgarlik belgilangan²⁹.

Qirg'iziston Respublikasi jinoyat qonunchiligi o'rganilganda, mazkur qonunchilikda bojxona sohasidagi jinoyatlar alohida turkumlashtirilgan. Ya'ni Qirg'iziston Respublikasi Jinoyat kodeksining 231-moddasi "Iqtisodiy kontrabanda" deb nomlanib, Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqining bojxona chegarasi orqali tovarlar yoki boshqa narsalarni bojxona nazoratidan qo'shimcha ravishda yoki yashirish yoki hujjatlar yoki bojxona identifikatsiya vositalaridan firibgarlik yo'li bilan foydalanish yo'li bilan olib o'tish yoki deklaratsiya qilmaslik yoki noto'g'ri deklaratsiyalash harakatlari uchun mazkur modda doirasida javobgarlikka tortilishi belgilangan.

Shu bilan birga, JKning 285-moddasi (Qirg'iziston Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib o'tishning maxsus qoidalari belgilangan ashyolarni kontrabanda qilish)da belgilangan jinoyatning predmeti giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, ularning analoglari va prekursorlari, kuchli, zaharli, radioaktiv yoki portlovchi moddalar; qurollar, portlovchi qurilmalar, o'qotar qurollar yoki o'q dorilar; yadroviy, kimyoviy, biologik va ommaviy qirg'in qurollarining boshqa turlari; ommaviy qirg'in qurollarini yaratishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan va Qirg'iziston Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib o'tishning maxsus qoidalari belgilangan materiallar, texnologiyalar, ilmiy-texnik ma'lumotlar va uskunalar; bojxona chegarasi orqali maxsus qoidalarga muvofiq olib o'tiladigan strategik ahamiyatga ega bo'lgan tovarlar va madaniy boyliklar hisoblanadi.

Bundan tashqari, JKning 241-moddasi "Bojxona to'lovlari to'lashdan bo'yin tovlash" deb nomlanib, bojxona to'lovlari kamaytirish uchun asos hisoblaniuvchi hujjatlarini qalbakilashtirish yoki ularni yo'qotishda ifodalangan harkatlar uchun bizning qonunchiligimizdan farqli ravishda, alohida jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan³⁰.

²⁸ Qozog'iston Respublikasi Jinoyat kodeksi // URL: https://kodeksy-kz.com/ka/ugolovnyj_kodeks/234.htm.

²⁹ Moldova Respublikasi Jinoyat Kodeksi // URL: <http://lex.justice.md/ru/331268/>.

³⁰ Qirg'iziston Respublikasi Jinoyat Kodeksi // URL: <http://cbd.minjust.gov.kg/act/view/ruru/568>.

Bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish jinoyatining mohiyatan u yoki bu jihatlari haqida so'z yuritilgan davlatlar jinoyat qonunchiligida yuqoridagidek tavsiflangan. Yuqorida qayd etilganidek, mazkur davlatlar jinoyat qonunlariga ko'ra "bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish" kabi o'xshash jinoyat mavjud bo'lmasada, kontrabanda, iqtisodiy kontrabanda, bojxona to'lovlari va yig'implarini to'lashdan bo'yin tovlash kabi jinoyatlarni tadqiq etilayotgan jinoyat tarkibiga yaqin qilmishlar sifatida ko'rish mumkin.

Tadqiq etilgan ikkinchi guruhga mansub ayrim xorijiy davlatlarda "bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish" deb nomlangan alohida jinoyat tarkibi mavjud emas.

O'ziga xosligi yanada shunda ham namoyon bo'ladiki, agar shaxs bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzayotib, ruxsat etilgan chegaradan chiqqan bo'lsa, unda tegishli qonunlarga binoan javobgarlik qo'llaniladi.

Fransiyada "bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish" deb nomlangan alohida jinoyat tarkibi mavjud emas. Lekin bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzishning ayrim shakllari uchun javobgarlik nazarda tutilgan. Masalan, Fransiya jinoyat qonunining 226-moddasida bojxonadan o'ziga qonuniy asosda tegishli bo'lmagan tovarlar yoki shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar bilan o'tganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan³¹.

Shuningdek, Shveysariyada ham "bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish" deb nomlangan alohida jinoyat tarkibi mavjud emas. Biroq bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzishning ayrim shakllari uchun javobgarlik nazarda tutilgan. Masalan, Shveysariya jinoyat qonunining 246-moddasida bojxonadan o'tishda soxta hujjatlardan foydalanganlik, 264-moddada esa Shveysariya tomonidan ratifikatsiya qilingan bojxonaga oid xalqaro hujjatlar qoidalarini buzganlik, 321-moddada bojxonada yuk va pochta rasmiylashtiruvini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan³².

Yuqoridagi izlanishlarni inobatga olgan xolda bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish jinoyati ham iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlardan birni sifatida qaralishi va uning o'ziga xos bo'lgan jihatlari (*bojxona qonunchiligi bilan bog'liq*) inobatga olinishi lozim.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, bojxona to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq tovarlarni olib kirish, yoki olib chiqishni taqiqlash davlat xavfsizligini ta'minlash jamoat tartibini, axloq-odobni inson hayoti va sog'lig'ini atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, O'zbekiston Respublikasi va boshqa mamlakatlarning tarixiy arxeologik va san'at yodgorliklarini himoya qilish maqsadida, shuningdek O'zbekiston Respublikasining boshqa manfaatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Tovarlarni bojxona chegarasidan o'tkazishni cheklash esa xalqaro vaziyat ichki bozorni himoya qilishdan kelib chiqib, shuningdek chet el davlatlari va ittifoqlarining O'zbekiston Respublikasi manfaatlarini kamsituvchi yoki ularga ziyon yetkazuvchi harakatlariga javoban choralar sifatida o'rnatiladi.

Bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish bilan bog'liq jinoyatlar bojxona chegarasi orqali tovar va transport vositalarini olib o'tish, boj to'lovlarini undirish, bojxona rasmiylashtiruvi, bojxona nazoratini amalga oshirish tartibi va shartlaridan hamda bojxona siyosatini amalga

³¹ www.legislationline.org/documents/section/criminalcodes/france_criminal_code.pdf.

³² [www.legislationline.org/documents/section/criminal-codes/Swiss_Criminal_Code_of_21_December_1937_\(Status_of_1_January_2014\)_The_Federal_Assembly_the_Swiss_Confederation,_based_on_Article_123_paragraphs_1_and_3_of_the_Federal_Constitution,_and_having_considered_a_Federal_Council_Dispatch_dated_23_July_1918.](http://www.legislationline.org/documents/section/criminal-codes/Swiss_Criminal_Code_of_21_December_1937_(Status_of_1_January_2014)_The_Federal_Assembly_the_Swiss_Confederation,_based_on_Article_123_paragraphs_1_and_3_of_the_Federal_Constitution,_and_having_considered_a_Federal_Council_Dispatch_dated_23_July_1918.)

oshirishning boshqa vositalaridan iboratdir. Jonatan Herring ta'kidlashicha, "qonunchilik nuqtai nazaridan bojxona ishi davlat iqtisodiy faoliyatining kontrabanda va boshqa bojxona sohasiga oid sodir etilgan jinoyatlardan bir sifatida qaraladi".³³

Bizning fikrimizcha esa, bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish jinoyati davlat va jamiyat manfaatlariga zarar keltiruvchi iqtisodiyot sohasidagi jinoyat sifatida qaraladi. Bu sohadagi jinoyatlar turg'un va jadal iqtisodiy munosabatlarga zarar yetkazishi bilan birgalikda jamiyatdagi sog'lom iqtisodiy raqobat jarayonlariga ham ta'sir o'tkazadi.

Amaldagi qonun hujjatlarni takomillashtirish bo'yicha takliflar: O'zbekiston Respublikasi JKning 182-moddasini quyidagi 3-qism bilan to'ldirishni taklif sifatida kiritamiz: *Yakka tartibdagi tadbirkorlar va (yoki) yuridik shaxs bo'lgan tadbirkorlik sub'ektlarining nomiga kelgan tovarlarni chegara bojxona postida bojxona ko'rigidan o'tkazish jarayonida yo'l yuk kuzatuv hujjatlarida aniqlangan tafovutlar yakka tartibdagi tadbirkorlar va (yoki) yuridik shaxs bo'lgan tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan, mazkur tafovutlar aniqlangan paytdan e'tiboran uch kunlik muddatda mustaqil tuzatilishi ularning ma'muriy va jinoiy javobgarlikka tortilishini istisno etadi, bunda yakka tartibdagi tadbirkorlar va (yoki) yuridik shaxs bo'lgan tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan deklaratsiyalanishi talab etiladigan tovarlarni bojxona nazoratining "yashil" yo'lagidan qasddan deklaratsiyalamasdan olib o'tishi yoki tovarlarni bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazish maqsadida ularni bojxona yuk deklaratsiyasida qasddan ko'rsatmagan holda taqdim etilganlik holatlari hamda O'zbekiston Respublikasiga olib kirish va olib chiqishda alohida tartib belgilangan yoki O'zbekiston Respublikasiga olib kirish va olib chiqish ta'qiqlangan tovarlarni olib o'tish mustasno.*

Taklif etilayotgan qoida bojxona to'lovlarini o'z xohishi bilan to'lanilishiga, pul mablag'larini davlat budjetiga o'z vaqtida va to'liq tushishiga hamda ishbilarmonlik muhitini rivojlanishiga qo'shimcha sharoitlar yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi JKga quyidagi nomdagi "Bojxona to'lovlarini to'lashdan bo'yin tovlash va bojxona sohasida berilgan imtiyozlardan maqsadsiz foydalanish" 184¹-modda bilan to'ldirish taklifini kiritamiz.

"Bojxona to'lovlarini to'lashdan qasddan bo'yin tovlash shuningdek berilgan imtiyozlardan maqsadsiz foydalanish, tovarning tarkibiy tuzilishi va texnik tavsifini o'zgartirgan holda undan boshqa maqsadlarda foydalanish shunday qilmishlar uchun ma'muriy jazo qo'llangandan keyin ko'p miqdorda sodir etilgan bo'lsa,-

Bazaviy hisoblash miqdoring bir yuz ellik baravarigacha miqdorda jarima jazosi bilan jazolanadi.

Ushbu qilmish:

a) juda ko'p miqdorda

b) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan bo'lsa Bazaviy hisoblash miqdoring 300 baravaridan 500 baravarigacha jarima jazosi bilan jazolanadi.

Birinchi marta jinoyat sodir etgan shaxs (moddaning ikkinchi qismi b bandi bundan mustasno) bojxona organlari tekshiruvlari natijasi bo'yicha bojxona organi qarorini olgan

³³ Jonatan Herring . Criminal Law: Text cases and materials/ Oxford United Kingdom; New York: Oxford University press [2014]P 936.

sanadan boshlab o'ttiz kalendar kundan yoxud o'zaro kelishuvga binoan bo'lib-bo'lib yoki kechiktirib to'lashning oxirgi muddatdan kechiktirmay bojxona to'lovlari tarzida yetkazilgan zararning o'rnini to'liq qoplasa javobgarlikdan ozod etiladi".

Yuqoridagi moddaning O'zbekiston Respublikasi amaldagi JKga kiritilishi birinchi marta jinoyat sodir etgan shaxsga yana bir bor imkon berish orqali, uning davlatga bo'lgan ishonchini yanada oshirishga va kelgusida ushbu turdagi jinoyatlar sodir etilishining kamayishiga olib keladi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi T. "O'zbekiston" 2023-yil.
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasining rasmiy veb-sayti www.lex.uz.
3. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat–protsessual kodeksi. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasining rasmiy veb-sayti www.lex.uz.
4. O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasining rasmiy veb-sayti www.lex.uz.
5. Suchkov Yu.I. Преступления в сфере внешнеэкономической деятельности Rossiyskoy Federatsii. Moskva, 2007. S. 115.
6. Rusanov G.A. Преступления в сфере экономической деятельности: учебное пособие. Moskva, 2011. S. 76. 14.
7. Dmitrienko I.V. Foreign economic activity as the object of criminal law protection // Russian investigator. 2008. №8.
8. Dmitrienko I.V. Внешнеэкономическая деятельность как объект уголовноправовой охраны // Rossiyskiy sledovatel'. 2008. № 8. С. 13–15. 15.
9. Garmaev Yu.P. Преступления в сфере внешнеэкономической деятельности и криминалистическая методика расследования // SPS «Konsulytant Plyus.
10. Kadirov M.M. Ugolovnoe pravo Respubliki Uzbekistan. Osobennaya chast'. Uchebnik. / Pod redaktsiye d.yu.n., prof. U.Tadjixanova. - Tashkent: Adolat. 1997. - S. 204. 20.
11. A.T Achilov "Tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq bojxona qonunchiligining buzilish jinoyatlarini jinoiy-huquqiy tartibga solishni takomillashtirish" Bojxona inistituti 2020 y. 68 b.
12. Jbankov V.A. Таможенные преступления: сущность и проблемы выявления // sibir yuridik xabarlar. 2004. № 4; Grachev O.V Понятие преступлений, посягающих на экономическую безопасность Российской Федерации в сфере таможенной интеграции // Advokat tajribalari. 2012. № 6.
13. Jonatan Herring . Criminal Law: Text cases and materials/ Oxford United Kingdom; New York: Oxford University press [2014]P 936.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-sonli Farmoni, <https://lex.uz/docs/4149765>.
15. Yashirin iqtisodiёт. O'quv qo'llanma: jamoa muallifligida. – T.: DBQ BI, 2020, 235 b.
16. Turdiev S.B. "Yashirin iqtisodiyot"ni qisqartirish va unga qarshi samarali kurashish yo'llari // URL:[http:// iqtisodiyot.tsue.uz/ sites/ default/ files/ maqolalar/ 7_Turdiyev.pdf](http://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/7_Turdiyev.pdf).

17. Abduqodirov Sh.Yo. Qonunga xilof tadbirkorlikka qarshi kurashning jinoyat- huquqiy va kriminologik muammolari. Yurid. nomz. ... diss. - Toshkent: TDYUI, 2007. - B. 124.
18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 11-apreldagi PF-5409-sonli Farmoni, <https://lex.uz/docs/3676955>.
19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-iyundagi PF-6005-son Farmoni, <https://lex.uz/docs/4844615>.
20. James Alm. Measuring, Explaining, and Controlling Tax Evasion: Lessons from Theory, Experiments, and Field Studies // Working Paper 1213. July 2012.
21. www.legislationline.org/documents/section/criminal-codes/Swiss Criminal Code of 21 December 1937 (Status as of 1 January 2014) The Federal Assembly the Swiss Confederation, based on Article 123 paragraphs 1 and 3 of the Federal Constitution, and having considered a Federal Council Dispatch dated 23 July 1918.
22. Jonatan Herring . Criminal Law: Text cases and materials/ Oxford United Kingdom; New York: Oxford University press [2014]P 936.
23. Qirg'iziston Respublikasi Jinoyat Kodeksi // URL:<http://cbd.minjust.gov.kg/act/view/ruru/568>.
24. Qozog'iston Respublikasi Jinoyat kodeksi // URL: https://kodeksy-kz.com/ka/ugolovnyj_kodeks/234.htm.
25. Moldova Respublikasi Jinoyat Kodeksi // URL:<http://lex.justice.md/ru/331268/>.
26. Yashirin iqtisodiyot. O'quv qo'llanma: jamoa muallifligida.– T.: DBQ BI, 2020, 77 b.
27. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 02.06.2023 yildagi PQ-181-sonli Qarori.